Sattarov Farhod Islomovich
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Manzaraning ishlash jarayoni va uning ilmiy-nazariy tahlili

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10866355

Annatatsiya: Ushbu maqolada manzara janri va uning o‘ziga xos jihatlari bayon qilingan. Manzara ishlashda kunni qay paytdaligi, tabiat bo‘laklarini olis va yaqindan ko‘rinishiga qarab chiziqli va havo perspektiva o‘zgarishi taxlil qilingan. Manzara ishlashda rang munosabatlari rus rassomlar asarlari taxlili, hamda manzara ishlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yorug‘lik, fon, kontrast, refleks, plan, rang, yorug‘ va soya, natura, nur, plastik, detal, sovuq ranglar, rang tuslari, moybo‘yoq, manzara, etyut, kompozitsiya

Har bir inson tabiatdan bahra oladi. Ammo bu hali tabiatga muhabbat degani emas. Tabiatga muhabbat-uni tushunishdan, uning go‘zalliklarini anglashdan, tabiat bilan munosabatga kirishishidan boshlanadi.

O‘z navbatida tabiat insonda kuzatuvchanlik, sezgirlik kabi tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Inson tabiatdan faqat zavqlanishni emas, balki uni yaxshi tushunishni ham o‘rgatadi. Tabiat insonda vatan tuyg‘usini uyg‘otadi, uni mehnat va jasoratga undaydi, juda ko‘p tuyg‘ularni kamol toptiradi hamda ko‘p narsalarni talab etadi. Madaniyatli, ma’naviy kamol topgan inson uchun o‘z vatani tabiatning muhofaza qilishi hayoti va faoliyatining uzviy qismiga aylanib qoladi.

Tabiat go‘zalliklarini sevish (estetik tuyg‘u) har bir kishiga xos xususiyat. Tasviriy san’atning rangtasvir turidagi tabiat ko‘rinishlari aks etgan kartinalar insonda ma’naviy go‘zalliklarni shakllantiradi.

Manzara ishlashda rassomlar turli tuslarni ifodalashda yorug‘lik kontrastlaridan foydalanadilar. Och rangdagi narsalarning to‘q ranglilari yonida qo‘yilib, ranglar kontrasti kuchaytiriladi va ular shu usulda shakl ifodasini yoritishga erishadilar. Oq va qora fonlarda joylashgan bir xildagi kulrang to‘g‘ri burchaklarni bir-biriga taqqoslab ko‘ring. Ular bir necha xilda ko‘rinadi. Kulrang qora fonda asliga ko‘ra ochroq, oq fonda esa to‘qroq bo‘lib ko‘rinadi. Bu kontrast hodisalari yorug‘lik va yorqinlik kontrasti deyiladi.

Manzarani ishlashda kontrastlik hodisasidan foydalaniladi. Kontrast so‘zi “teskari”, “qarama-qarshi” degan ma’noni anglatadi. Ranglar kontrasti biror-bir rangning atrofdagi boshqa ranglar ta’sirida, asliga qaraganda o‘zgarishini bildiradi. Qo‘shimcha ranglar bir-birlari yonida yorqinroq va to‘qroq ko‘rinadi. Asosiy ranglar orasida ushbu qonuniyat mavjud. Hammamizga ma’lumki qizil rang yashil rang yonida yanada qizilroq, yashil qizil oldida yanada yashilroq ko‘rinadi. Ko‘k va qizil ranglar kontrastlari sovuq va issiq ranglar kontrastlari timsolidir.

Manzarada aks etgan ranglar tomoshabin ruhiyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Manzaradagi ranglarning yorqinligi ko‘tarinkilik, hayotsevarlik va kelajakka ishonch tuyg‘ularini tug‘dirishi yoki aksincha bo‘g‘iq, sovuq ranglar tushkin kayfiyat, bezovtalik kabilarni uyg‘otadi. Manzara ishlaganda shuni unutmaslik lozimki soyalar ham rangli bo‘ladi. Rassom bir rangning nur va soya hisobiga tuslanishini ko‘ra olishi va shunga muvofiq tasvirlashi kerak. Bunda usulni valyor rangtasvirida ko‘rish mumkin. Manzarada reflekslardan ham foydalanish zarur ya’ni tasvirlanayotgan predmetning boshqa buyumlarning yorug‘ligi yoki rangi ta’sirida o‘zgarishini to‘g‘ri belgilash va aks ettirish ham katta ahamiyatga ega. Manzara rangtasvirida har bir rang surtmasiga alohida e’tibor berish lozim. Manzarani mohirona ishlashda undagi ranglarning o‘zaro munosabatini naturada qanday bo‘lsa shunday tasvirlay olish bilan belgilanadi.

Manzara ishlash jarayonida ranglarning o‘zaro munosabatini his qilish va manzara malakasini hosil qilish uchun manzara ob’ektlarining yorug‘lik va soya ta’siridagi o‘zgarishlarini turlicha plandagi ko‘rinishlarda kuzatish, o‘zaro qiyoslash yaxshi samara beradi. Naturadagi ob’ektlarning ko‘rinishi ularning yoritilish darajasi va boshqa ob’ektlarning soyalari ta’sirida o‘zgaradi. Tongda natura sariq-oltin rangida ko‘rinadi, oy nurida kulrang-moviy rangga, bulutli kunda esa to‘qroq kumush rangiga kiradi. O‘rmonda hamma narsa iliq yashil rangga moyil bo‘ladi. Manzara chizish jarayonida rangtasvirning plastik vositalaridan ham foydalaniladi. Buning uchun naturadagi ranglar dinamikasini diqqat bilan kuzatish zarur. Shundagina yorug‘ va soya dog‘larining kartina bo‘ylab tarqalishidagi tabiiylikka, asarning jonli va ta’sirli chiqishiga erishish mumkin bo‘ladi.

Manzara chizish jarayonida boshlovchi rassomlarga predmetning rangi haqida ilgaridan shakllanib qolgan tasavvurlari halaqit berish mumkin. Predmet qanday yorug‘lik muhitda joylashganiga qaramay, uning rangi haqida ilgaridan shakllangan tushuncha xotirada saqlanib turaveradi. Natijada tajribasizroq rassomlar etyud ishlash jarayonida jiddiy xatoga yo‘l qo‘yadilar, ob’ektni ilgaridan shakllangan tasavvurlariga ko‘ra tasvirlaydilar. Masalan, maysalarning rangi kuzatuvchidan uzoqlashish, muhitning o‘zgarishiga muvofiq ravishda o‘zgarishini hisobga olmasdan birdek yashil rangda tasvirlayveradilar.

Manzara ustida ijodiy ish olib borish kompozitsion izlanishlar va ko‘plab etyudlar yozishni talab qiladi. etyudni kartinada takror qilish yaramaydi, chunki etyud asar g‘oyasiga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Rassom asta-sekin o‘ylangan obzor va manzaraning asosiy detallari shaklini, koloritning holatini topib boradi.

Manzara ustida ishlashning rangtasvirni boshqa janrlari bilan umumiy tomonlari ham bor. Xuddi boshqa yerdagidek manzarada ham mavzu tanlash, mazmunni topish, asar o‘lchami va formatini aniqlash, qismlarning o‘zaro bir-biriga aloqadorligini topish, tasvirning yaxlitligi va birligiga erishish nazarda tutiladi. Kompozitsiyaning ko‘rish qonunlari manzara uchun ham ishlatiladi.

Biroq, manzara kompozitsiyasi ayrim o‘ziga xosliklarga ham egadir.

Manzara uchun xarakterli xususiyatlardan biri bu katta fazoviy kenglik zarurligidir, natijada shuning ichidan fazoviy planlar va tasvirning fazoviy ketma-ketligi kelib chiqadi.Birinchi plan, manzaraning g‘oyaviy mazmunini ochib berishga va masshtabli idrok etishga, manzara qismlarini tonal va kattalik jihatdan to‘g‘ri tasavvur berishga yordam beradi.

Manzarani qurishda er va osmonni o‘zaro o‘lchamli va maqsadga muvofiq joylashtirib olish katta ahamiyatga egadir. Har bir qismning o‘lchamlari u yoki bu fikrni plastik tarzda ifodalashda rassomning maqsadiga ko‘ra mazkur o‘lka uchun xarakterli xususiyatlarini ko‘rsatishda zaruriy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yana shuni ham xal etish zarurki, manzaraning asosiy ob’ektlarini tonal va rang munosabatlarini ifodalash va shuningdek, shu ikki asosiy tushuncha ichidagi boshqa katta planlarni nisbatlarini ham hal etib olish zarur bo‘ladi.

Manzarani ishlashda yuqoridagi tavsiyalarga amal qilindi. Manzara kompozitsiyasi eskizi matoga tushirib olinib, so‘ngra uni moybo‘yoqda ishlash boshlandi. Avvalo manzarani ishlashda biz tasvirlamoqchi bo‘lgan makondagi rang, rang tuslari munosabatini aniqlashdan boshlanadi. Manzara uchun ishlangan etyudlar yordamida ranglarning o‘zaro munosabatlari aniqlashtirildi. Agar manzaradagi ranglarni o‘zaro munosabatlari to‘g‘ri belgilanib olinsa, bu manzaraning muvaffaqiyatli chiqishidagi birinchi omil hisoblanadi. Mashhur rus rassomi P.Konchalovskiy ta’kidlaganidek: “Aniq rangni naturadan aks ettirish qiyin, har daqiqada rang o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun ranglar munosabatidan foydalanish lozim. Agar ular bir-birini naturada inkor etmasa, unda uyg‘unlikka erishish va naturani to‘g‘ri aks

ettirish mumkin bo‘ladi”. Ushbu tavsiyaga amal qilib, naturadan bajarilgan etyudlar asosida manzarada ranglarning o‘zaro munosabatini aniqlagan holda ishga kirishildi. Manzarani ishlashda oldingi

planda ko‘proq iliq ranglarga tortgan rang tuslaridan, o‘rta planda o‘rtacha ranglar, oxirgi planda esa sovuq ranglardan foydalanildi, lekin oxirgi planda tong mahalini bildirish uchun ham iliq ranglardan foydalanish kerak edi. Bu jarayon juda murakkab bo‘lib, kartinani muvaffaqiyatli chiqishi ushbu jarayonga ham bog‘liq edi. Shuning uchun ham sovuq ranglarni iliq ranglar inkor etmasligi uchun umumiylikda foydalanishga xarakat qilinadi. Chunki manzarada umumiylikdan foydalanishi, ranglar bir-birini inkor etishini oldini oladi va ranglar bitta koloritga bo‘ysunishiga erishiladi. “Umumiylikni qidiringlar – deb yozgan edi manzarachi rassom I.Levitan – rangtasvir protokol emas, balki tabiatni rangtasvir orqali tushuntirishdir. Mayda, chuydalarga o‘ralashmang, umumiy tusni qidiringlar”. Agar fazoviy kenglikni bildirish uchun odatdagicha sovuq ranglardan foydalanilsa, quyosh chiqishi mahalini ya’ni tong mahalini ko‘rsatish qiyinroq bo‘ladi. Shuning uchun sovuq ranglarning inkor etmaydigan iliq ranglardan foydalanish mumkin edi. Buning natijasida iliq va sovuq ranglar bir-birini inkor etmaydigan rang tuslaridan foydalanildi. Manzara ustida ishlash davomida osmon va yerni o‘zaro munosabatini aniqlashtirib olish muhim hisoblanadi. Bu ikki ob’ektni tuslari va ranglar munosabatini aniqlashda quyidagi omillar nazarda tutiladi. Xususan osmondagi bulutlar ularni yoritilgan tomoni va soyalari, bularni erga, yerdagi ob’ektlar uylar, daraxtlar va boshqalarga ta’sirini hisobga olish lozim. Bularning tus va ranglari o‘zaro munosabati manzaradagi koloritning uyg‘unligini ta’minlaydi. Rang va rang tuslari har xil bo‘lishdan qat’iy nazar manzaradagi uyg‘unlikni buzish mumkin emas. Agar manzaradagi rang va rang tuslari uyg‘unlikka bo‘ysundirilmasa, manzarada bunday rang va rang tusi oshiqcha hisoblanadi va kompozitsiyani buzadi. Har qanday mavzusidagi manzarani ishlashda osmon va yerdagi ranglar munosabatini aniqlashtirib olingandan so‘ng, ular bitta koloritga buysundirildi va umumlashtirildi.

Manzarani ishlashda bahor faslidagi tong mahalini ifodalash jarayonida yorug‘lik va ob-havoni berishda umumiylikdan foydalanish o‘zini samarasini berdi. Tabiatning umumiy rang va rang tuslarini aks ettirishda yorug‘likni roli hali katta ahamiyatga ega. Umumiylikka bo‘ysundirilgan ob’ekt va narsalarning ranglari haqqoniy chiqadi. Masalan tongni tasvirlashda hali quyosh chiqmasdan oldin o‘simliklar quyoshli kunga nisbatan xiraroq bo‘ladi. Shularni hisobga olgan xolda daraxt va uylarning, ko‘chani ifodalandi. Kartinadagi kayfiyatni berishda rassom doimo yorqin ranglardan foydalanishi o‘z samarasini bermasligi mumkin. Oldingi qatorda tasvirlangan daraxtlarni tanasini soyalarini tasvirlashda ushbularni nazardan qochirilmadi.

Moybo‘yoqda ishlash jarayonida yuqoridagilarga amal qilindi va ishni yakunlanishida bu omillar juda katta ahamiyatga ega bo‘lib yordam berdi.

Manzarani chiroyli va uyg‘un bo‘lishi, bir xillikka yo‘q qo‘ymaslik uchun rassom juda katta tajribaga ega bo‘lishi zarur. Batartiblik, uyg‘unlik, go‘zallik taassavvuriga erishish uchun ko‘pgina masalalarni hal qilish kerak. Shu bilan birga rassom ranglarning o‘ziga xos xususiyatlarining yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi, ranglarning inson ruhiyatiga ta’sirini o‘rganishi, ranglar kontrastlarini o‘z asarida bera olishi, ushbu kontrastlik, asar koloritini buzmasligi zarur. Ranglarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri iliq ranglar kartinadi bizga sovuq ranglarga nisbatan yaqinroq turgandek tuyuladi. Issiq ranglar “oldinga chiqib” tursa, sovuq ranglar “orqaga chekinib” turadi. Bu haqida mashhur nemis shoiri Gyote bejiz “moviy osmon bizdan uzoqlashadi” deb ta’kidlamagan. Manzara ishlashni plastik uslubida ham ushbu jihatdan foydalaniladi. Unga ko‘ra manzarani oldingi planida issiq rangla, o‘rta planda o‘rtacha ranglar, oxirgi

uchinchi planda ega sovuq ranglar ishlatilishi tavsiya qilinadi. Buning natijasida manzarada fazoviy kenglikni kiritish mumkin. Manzarachi rassom I.Shishkin ushbu illyuzadan o‘zini “O‘rmon olislari” kartinasida unumli foydalangan. Unda o‘rmon olislarini berishda o‘rmon chetidagi yalanglikdan ko‘rilgan manzarani aks ettirishda iliq ranglardan unumli foydalangan. Yalanglikda o‘sgan yolg‘iz qarag‘ay, butalar yalanglikning u er-bu erida ko‘rinib turgan harsang toshlar barchasi tabiiy chiqqan, hayotda qanday bo‘lsa, shundayligicha tasvirlangan. Kartinada barcha detallar birlashib, hali inson o‘zgartirishga ulgurmasdan tabiiy borliq haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Oldingi plandagi tuproqning qizg‘ish-jigarrang ko‘rinishi hamda daraxtzorning quyuq ranglardagi manzarasi osmonning tumansimon ko‘rinishi bilan uyg‘unlashib ketgan, go‘yo chek-chegarasi ko‘rinmayotgan o‘rmon olislarga cho‘zilib, ufq bilan birlashib ketgandek taassurot tug‘ridiradi. Shishkin manzarani go‘zalroq, silliqroq yoki atayin dramatik keskinlikda tasvirlashga intilmaydi. U o‘zi ko‘rib turgan naturadagi mavjud narsalarni kartinada hayotiy, haqqoniy aks ettirishga intiladi. Undagi uzoq uzoqdagi ob’ektlar asosan sovuq ranglarda ishlangan. Tabiatda naturada ham insonga shunday ko‘rinadi, buning natijasida olisni idrok etiladi.

Manzarani ishlash jarayonida o‘z o‘lkamizga cheksiz muxabbatni his qilib, uning go‘zalligini ifodalashda qulimizdan kelganicha baholi qudrat xarakat qilamiz. Umuman aytganda manzarani yaratishda ranglarning o‘ziga xos xususiyatlari bilishi, ranglarning o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri aks ettirish rassomning his-tuyg‘ularini, fikrlari va kechinmalarini talqin qilib, yorqin kolorit mujassamligida va rangning ustalik bilan berishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahim Hasanov TAsviriy san’at asoslari G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa – ijodiy uyi T.2009 y 182 bet

2. Kompozitsiya A.Turdaliyev Toshkent-2003 49-bet

3. Komoldinov S. QALAMTASVIR MASHG‘ULOTLARIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”. – 2023. – T. 1. – №. 01.\

4. Komoldinov S., Boboxonova M. IJODIY MANZARALAR CHIZISH BO‘YICHA AMALIY VA NAZARIY TAVSIYALAR //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – T. 3. – №. 3 Part 3. – C. 161-163.

5. Jomoldin o‘g‘li K. S. RANGTASVIRDA MANZARA ISHLASHNING AMALIY AHAMIYATI //International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2022. – C. 101-104.

6. Sirojiddin K., Dildora T. JONAJON OLKAM MAVZUSIDA MANZARA CHIZISH BOYICHA AMALIY TAVSIYALAR // BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 58-61.

7. Komoldinov S. J., Abdirasilov S. F. ON THE INTEGRITY OF ILLUSTRATION IN PAINTING LESSONS AND ITS RELATIONSHIP WITH COMPOSITION ACTIVITY //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – C. 168-171.

8. Taxirovich S. N. et al. BADIIY TASVIR VOSITALARIDA METONIMIYANING LINGVISTIK TAVSIFI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 34. – №. 3. – C. 42-45.

9. Toxirovich S. N. VISUAL ARTS TEACHING METHODOLOGY AND PROBLEMS AND SOLUTIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 5. – C. 569-571.

10. Takhirovich S. N. USE OF THE REGIONAL COMPONENT IN FINE ARTS CLASSES 5-7 // Archive of Conferences. – 2021. – C. 1-3.

11. Suyarov N., Ubaydullaev S. Use of national-regional component in art lessons // Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 8. – C. 222-227.

12. Suyarov N. T. Implementation of the national-regional component in the educational process //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – T. 11. – №. 11. – C. 511-514.